

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

ANORBOYEVA BAXTIJAMOL DANİYAR QIZI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEVA-SABZAVOTCHILIKKA
IXTISOSLASHGAN FERMER XO‘JALIKLARI IQTISODIY
FAOLIYATINING STATISTIK BAHOLASH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора по экономическим
наукам
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Economic Sciences

Anorboyeva Baxtjamol Daniyar qizi

О‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer
xo‘jaliklari iqtisodiy faoliyatining statistik baholash uslubiyatini
takomillashtirish 3

Анорбоева Бахтижамол Данияр кизи

Совершенствование методологии оценки статистического учета
деятельности фермерских хозяйств, специализирующихся на
выращивании фруктов и овощей в Республики Узбекистан 39

Anorboeva Bakhtjamol Daniyar qizi

Improving the Methodology for Statistical Evaluation of the Economic Activities
of Fruit and Vegetable Specialized Farms in the Republic of Uzbekistan 79

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 84

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

ANORBOYEVA BAXTIJAMOL DANİYAR QIZI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEVA-SABZAVOTCHILIKKA
IXTISOSLASHGAN FERMER XO‘JALIKLARI IQTISODIY
FAOLIYATINING STATISTIK BAHOLASH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Iqt836 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Siddiqov Alisher Djurakulovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Berkinov Bazarbay**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'oyibnazarov Bahodir Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Zakirova Umida Maxamadaminovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "18" mart kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-72; faks: (+99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1931 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-72; faks: (+99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "4" mart da tarqatildi.
(2026-yil "4" mart da 21 raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor
B.E. Mamaraximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor
U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotida bugungi kunda meva-sabzavotchilik tarmog‘i aholining oziq-ovqat bilan ta‘minlashda, qayta ishlash sanoatida jarayonida xomashyoni muntazam ravishda yetkazishda hamda eksportni kengaytirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Rasmiy statistik ma‘lumotlar so‘nggi yigirma yil ichida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning yiliga o‘rtacha 5–7 foizga o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.¹ Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Isroil va Yaponiyada ushbu yo‘nalishda fermer xo‘jaliklarini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, tarmoq samaradorligini oshirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va sohani kompleks rivojlantirish bo‘yicha keng qo‘llanma vazifasini bajarmoqda. Ular amaliyotida iqtisodiy-statistik tadqiqotlar asosida maxsus dasturlar ishlab chiqish, tarmoq boshqaruv tizimini takomillashtirish va meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini modernizatsiya qilish orqali yuqori natijalarga erishilgan.

So‘nggi yillarda jahonda yuzaga kelgan oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi, xususan, meva-sabzavotchilik sohasini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Lekin jahon miqyosida meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi aholi soni va ularning talablari o‘shidan orqada qolayotganligi mazkur masala o‘z ilmiy yechimini topa olmayotganligini ko‘rsatadi. Shu bois meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, uning samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni fermer xo‘jaliklarida joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari sohaning raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy va statistik tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik sohasi aholining qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talablarini ta‘minlash bilan birga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, o‘tgan yillar davomida sohaga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatini rag‘batlantirish va rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Xususan, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasida qishloq xo‘jaligi samaradorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Bu borada agrar sohani rivojlantirish, klaster tizimini joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, soha xavfsizligini ta‘minlash vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish orqali “aholi farovonligini ta‘minlash, xususan, qishloq joylarda istiqomat qiluvchi fermerlarni daromadini 2 barobar oshirish va sohaning o‘shish darajasini yiliga 5 foizga yetkazish”² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda sohadagi tendensiyalarni statistik usullar orqali tahlil qilish, jarayonga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chuqur tahlil orqali tarmoqning istiqboldagi ko‘rsatkichlarini aniqlashda o‘rta

¹http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Export%20Potential.pdf

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.Lex.uz.

muddatga belgilangan prognoz ko'rsatkichlarini belgilash va strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Shu munosabat bilan, ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish va shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi sohasida Respublika hududlarida faoliyati yo'lga qo'yilgan mevasabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini statistik jihatdan chuqur tahlil qilish va ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik usullar orqali aniqlash hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish talab etilmoqda. Bu esa o'z navbatida, ushbu mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 7-iyundagi PQ-273-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi 104-son "Qishloq xo'jaligi sohasida statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan tarmoq korxonalari faoliyatini statistik jihatdan tadqiq qilish, samarali boshqaruv tizimini joriy qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishda ekonometrik modellar orqali tahlil qilish va jarayonni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Stenford University, Princeton University, Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Tailors University (Malayziya), Gazi University (Turkiya), G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi Stenford University, Princeton University (AQSh), Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Gazi University (Turkiya), G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya) va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Farg‘ona davlat universitetida olib borilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi sohasiga innovatsiyalarni joriy qilish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida bugungi kunda, qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: agrar sektorning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-mexanizmi ishlab chiqilgan, qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyat yuritish samaradorligini zamonaviy statistik usullarda integral baholash uslubi takomillashtirilgan, tizim boshqaruvini optimallashtirish uchun zarur tashkiliy o‘zgarishlarning ta‘siri ekonometrik usullarda baholangan (Stenford University, Princeton University, AQSh; Universidad de Las Palmas de Gran Canaria, Ispaniya; University of Munster, Germaniya); butunjahon standartlarni joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligi sohasida tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish, iste‘molchilarning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondirish jihatlari asoslangan (Korea Development Institute, Janubiy Koreya); qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi jami daromadlar va YIM hajmining o‘zgarish tendensiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan (Gazi University, Turkiya), agrar sektorning mamlakat va hududlar iqtisodiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sir etishi, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari asoslangan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston).

Jahonda globallashtirish sharoitida agrar sektorning barqaror rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha bir qator, jumladan, quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: mintaqalarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida zamonaviy ekonometrik va statistik usullarni qo‘llagan holda agrar sektor iqtisodiy samaradorligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish; qishloq xo‘jaligi mahsulot va xizmatlarini standartlashtirish va sifatini oshirish uchun jahon andozalariga mos tasniflarni amalga oshirish; qishloq xo‘jaligi eksport salohiyatini oshirish; qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini takomillashtirish; agrar sektorda innovatsion strategiyalarni rivojlantirish; qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida iqtisodiy-statistik va ekonometrik modellardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligi sohasini samaradorligini oshirish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari, fermer xo‘jaliklari faoliyatlarini o‘rganish masalalari xorijlik olimlardan L. Sfu, S. Fan, L. Chjou, J.M. Shopbach, S. Shiona, S.S. Shenoy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁴.

Meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirish, sotish bozorlarini rivojlantirish muammolari MDH mamlakatlari olimlaridan L.V. Agarkova,

⁴Лин Сфу, Сой Фан, Ли Чжоу. Китайское чудо: экономическая реформа, стратегия развития. – М.: 2011. S.68.; Jan Mathis Schopbach «Foreign direct investment in agriculture the impact of out grower schemes and large-scale farm employment on economic well-being in Zambia» Master of Arts, University of Zurich accepted on the recommendation of Prof. Dr. Rolf Kappel, examiner Prof. Dr. Isabel Gonther, co-examiner Prof. Dr. Jann Lay, co-examiner, diss. eth no. 22287 2014. – r. 21–28.; Susan Chiona, BSc «Technical and allocative efficiency of smallholder maize farmers in Zambia» A thesis submitted to the University of Zambia in partial fulfillment of the requirements of the degree of Master of Science in Agricultural Economics, The University of Zambia Lusaka, 2011. – r.64.; Sajna S. Shenoy. Foodtourism and the culinary tourist. Clemson University, 2005.

I.A. Baranov, N.A. Popov, A.V. Afanaseva, M.A. Solomaxin, N.I. Grekov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan⁵.

O‘zbekiston Respublikasida ekonometrik modellashtirish, qishloq xo‘jaligini tadqiq etish, qishloq xo‘jaligi sohasini iqtisodiy-statistik tahlil etish hamda samaradorligini yanada oshirish masalalari A. Abdug‘aniyev, S.S. Gulyamov, Y.A. Abdullayev, E. Abdunazarov, Q. Zokirov, N.M. Soatov, G‘.X. Qudratov, A.M. Jo‘rayev, R.H. Husanov, B. Berkinov, A. Qodirov, F. Dusmatov, Q. Choriyev, N.S. Xushmatov, N.R. Asadulina, A.X. Burhonov, Ch. Murodov, U. Umurzoqov, X. Xushvaqtova, U.S. Muxiddinova, I.K. Jumayev, Sh.T. Ergasheva, M.H. Saidov, I.S. Ochilov, O.A. Jo‘rayev, A.S. Xojayev, D.A. Mirzayev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁶.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar agrar iqtisodiyot fanining kengayishiga muayyan darajada xizmat qilib, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan bozorning samaradorligini oshirishda yuzaga keladigan muammolarni nazariy va amaliy jihatdan ilmiy tadqiqot o‘tkazishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida,

⁵ Агаркова Л.В. Формирование механизма устойчивого развития плодовоовощного подкомплекса: теория и практика. – Ставропол: Ставролит, 2007. – С.168.; Баранов И.А. Совершенствование коммерческой работы торговых и заготовительных организаций потребительской кооперации. Автореф. дисс. д-ра экон. наук. – М.: РГБ, 2003. – С.39.; Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. – М.: Дело и сервис, 2005. – С.56.; Афанасева А.В. Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе государственного регулирования продовольственного рынка. Автореф.дисс. на соиск.канд. экон. наук. – Самара. 2008. – С.26.; Соломахин М.А. Основные направления совершенствования системы ведения садоводства в условиях развития агропромышленной интеграции.//Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции 9-10 ноября 2005 г. – Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. – Том 1. – С.153–159.; Греков Н.И. Основные направления и факторы интенсификации садоводства.// Организационно-экономические проблемы стабилизации и развития аграрного сектора экономики. Том 1: Материалы научно-практической конференции 9-10 ноября 2005 г. Мичуринск: Изд-во ФГОУ ВПО МичГАУ, 2005. – Том 1. – С.164–166.

⁶ Soatov N.M. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. -B.743.; Abdullayev Y.A. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.:O‘qituvchi, 2002. – B. 592.; Abdug‘aniyev A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. – T.: Adabiyot jamg‘armasi. 2004. – B. 340.; Qudratov G‘.X. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekiston g‘allachiligidagi iqtisodiy munasabatlar. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya. 2006. – B. 250.; Жўраев А.М., Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы – T.: Узбекистан, 2002. – S.766.; Berkinov B. Institutsonal iqtisodiyot. Darslik. 2-qayta nashr. – Toshkent “Universitet” nashriyoti, 2023. 468 b.; Кадыров А.М., Дусматов Ф.Д. Инновационные инвестиционные факторы развития агропромышленного комплекса – T.: ИЭАНРУз, 2009. – С.52.; Burhonov A.X. Turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. – T.: O‘zBITI, 2000. – B. 117.; Murodov Ch. O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasini rivojlantirish. Iqt.fan. dokt. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T.: – 2001. – B. 46.; Умурзаков У.П. Пути повышения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики (на материалах Республики Узбекистан). Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. д-ра экон. наук. – T.: – 2003. – С. 43.; Xushvaqtova X.S. Bozor sharoitida meva-sabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari. Iqt.fan. nom.ilm.dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref.– T.: – 2005. – B. 25.; Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T.:2010. – B. 36.; Jumayev I.K. Fermer xo‘jaliklari rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari ekonometrik bashoratlash. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.-T.: 2011. – B. 43.; Ochilov S., Ergasheva S. Qishloq va suv xo‘jaligi statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2008. – B.192.; Abdunazarov E., Zokirov Q.Sabzavotchilik. O‘quv-usl. qo‘llanma. – Toshkent, 2019. – 174 b.; Saidov M.H., Ochilov I.S. Meva-sabzavotchilikda zamonaviy klasterlarni shakllantirish masalalari, ularning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quv-usl.qo‘llanma. – Toshkent. – TDAU, 2019. –150 b; Jo‘rayev O.A. Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarining statistik tadqiqoti (Surxondaryo viloyati misolida). Iqt.fan.fals.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T.: 2024. – B. 69.; Xojayev A.S. Meva sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanish holatini statistik tahlili (Farg‘ona viloyati misolida). Iqt.fan.fals.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T.: 2019. – B. 73.; Mirzayev D.A. Hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini statistik tadqiqi (Sirdaryo viloyati misolida). Iqt.fan.fals.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T.: 2019. – B. 72.

ushbu adabiyotlarda agrar sohasiga oid ko'rsatkichlarni statistik jihatdan chuqur tahlil qilish, ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda prognozlash ishlariga oid chuqur tadqiqot o'tkazilmaganligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Respublikada qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilikdagi fermer xo'jaliklarida mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini statistik jihatdan tadqiq qilish va prognozlashda ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agrar sohasining meva-sabzavotchilik misolida statistik jihatdan tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etish;

qishloq xo'jaligida yuz berayotgan tendensiyalarni statistik va ekonometrik jihatdan tahlilini amalga oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

respublikadagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirishning ko'p omilli statistik tahlilini amalga oshirish;

meva-sabzavotchilik sohasidagi ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy o'rganish asosida, ularni mamlakatga joriy qilish mexanizmlarini aniqlash;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarini oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

mamlakatda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanish darajasini statistik tahlil qilish asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

mamlakatda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanish holatini o'rta muddatli istiqbolda (2025–2030-y.) ilmiy asoslangan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

meva-sabzavotchilikdagi fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyati doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash hamda bozorga chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, taqqoslash, dinamika qatorlari, iqtisodiy indekslar va korrelyatsion-regression tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "meva-sabzavotchilik statistikasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni meva-sabzavotchilik sohasining holati,

rivojlanishi va istiqbolini tavsiflovchi miqdoriy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil etish hamda ularni sifat jihatidan baholash bilan bog'liq umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan kompleks foydalangan holda yig'ma statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari uchun "mikro-panel" (fermer ID) asosida "tushum – xarajat – resurs – logistika" ko'rsatkichlarini yagona formatda yig'adigan raqamli hisobot protokolini joriy etish orqali tannarx tarkibi, mehnat sarfi, kredit qiymati, logistika xarajatlari kabi mikro-ma'lumotlarning to'liq qamrab olinmasligi muammosini bartaraf etish taklifi asoslangan;

meva-sabzavot yetishtirishdagi mavsumiylik xususiyati ta'sirida narxlar va hajmning bir vaqtda tebranishi sharoitida narx va inflyatsiya deflyatorlari o'rtasidagi nomutanosiblikning real dinamikani noto'g'ri baholashga olib kelishi hamda fermer xo'jaliklari samaradorligini baholashda mavsumiy narx tebranishlarini neytrallashtirish maqsadida mahsulot kesimida "fermer-deflyator" (viloyat×oy×mahsulot) indeksi ishlab chiqilib, real tushum va real tannarx hisob-kitobi uslubini qo'llash taklifi asoslangan;

meva-sabzavotchilik sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmini sohada jadal innovatsion rivojlanishga turtki beruvchi hududning ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatini "yagona meva-sabzavotchilik sohasida innovatsion majmua"ga aylantirish, hududiy innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish asosida har bir hududda ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik innovatsion markazlarini yaratish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasi faoliyati istiqbollarni haqqoniy baholash maqsadida "katta sonlar qonuni"ga asoslangan holda 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaliklarida meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini ko'p omilli statistik tahlilini amalga oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanish jarayonlari va o'zgarishlari statistik usullarda kompleks tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini uslubiy jihatdan takomillashtirishga oid ilmiy takliflar va amaliy xulosalar ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanish holatini o'rta muddatli prognozlari tuzilgan;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari va xulosalarining ishonchliligi muallif tomonidan tadqiqot ishiga doir xorijiy hamda mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari asosida, foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi hududlarda meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishga doir qabul qilingan ustuvor yo'nalish

va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni vakolatli vazirlik, tuzilma va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatini iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar qabul qilish, sohadagi muammolarni bartaraf etish va ularni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, sohadagi statistik hisob-kitoblarni takomillashtirishda uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishida meva-sabzavotchilik sohasini statistik tadqiq qilish usullari, ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatini ilg‘or innovatsiyalarni joriy etgan holda statistik jihatdan baholash, ilmiy-nazariy xulosalardan oliy o‘quv yurtlarida “Statistika”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Iqtisodiy statistika” kabi fanlarning o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda, takomillashtirish va ta’lim jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “meva-sabzavotchilik statistikasi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini meva-sabzavotchilik sohasining holati, rivojlanishi va istiqbolini tavsiflovchi miqdoriy ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil etish hamda ularni sifat jihatidan baholash bilan bog‘liq umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlardan kompleks foydalangan holda yig‘ma statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Qishloq xo‘jaligi statistikasi” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy, ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son buyrug‘i, Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 16-dekabrda 02/01-01-592-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlardan kompleks foydalangan holda yig‘ma statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan meva-sabzavotchilik statistikasiga oid nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun “mikro-panel” (fermer ID) asosida “tushum – xarajat – resurs – logistika” ko‘rsatkichlarini yagona formatda yig‘adigan raqamli hisobot protokolini joriy etish orqali tannarx tarkibi, mehnat sarfi, kredit qiymati, logistika xarajatlari kabi mikro-ma’lumotlarning to‘liq qamrab olinmasligi muammosini bartaraf etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 16-sentyabrdagi 04/16-05/4368-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi soha faoliyatini kengaytirilgan holda statistik kuzatishning uslubiy jihatdan takomillashtirishga imkon yaratgan;

meva-sabzavot yetishtirishdagi mavsumiylik xususiyati ta’sirida narxlar va hajmning bir vaqtda tebranishi sharoitida narx va inflyatsiya deflyatorlari o‘rtasidagi nomutanosiblikning real dinamikani noto‘g‘ri baholashga olib kelishi hamda fermer

xo'jaliklari samaradorligini baholashda mavsumiy narx tebranishlarini neytrallashtirish maqsadida mahsulot kesimida "fermer-deflyator" (viloyat×oy×mahsulot) indeksi ishlab chiqilib, real tushum va real tannarx hisob-kitobi uslubini qo'llash taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 16-sentyabrdagi 04/16-05/4368 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi yalpi hosil, hosildorlik darajasi va ularning dinamikasini zamonaviy statistik usullarda baholash imkonini bergan;

meva-sabzavotchilik sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmini sohada jadal innovatsion rivojlanishga turtki beruvchi hududning ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatini "yagona meva-sabzavotchilik sohasida innovatsion majmua"ga aylantirish, hududiy innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish asosida har bir hududda ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik innovatsion markazlarini yaratish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 16-sentyabrdagi 04/16-05/4368 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimiz va uning hududlarida meva-sabzavotchilik sohasida innovatsiyalarni boshqarishda yagona meva-sabzavotchilik sohasida innovatsion majmuaga aylantirish, hududiy innovatsiyalarni rag'batlantirish imkonini yaratgan;

O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasi faoliyati istiqbollarini haqqoniy baholash maqsadida "katta sonlar qonuni"ga asoslangan holda 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 16-sentyabrdagi 04/16-05/4368-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi istiqbolda meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasi faoliyatini asosiy yo'nalishlarini belgilashda va bu sohada optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengayishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ish natijalari 9 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 monografiya, xorijiy 3 ta ilmiy maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 10 ta ilmiy maqola hamda xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda 14 ta tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 220 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish faoliyatini statistik tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari” deb nomlanuvchi birinchi bobida meva-sabzavotchilik sohasi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda ko‘rsatkichlar tizimi yoritilgan. Shu bilan birga, mazkur bobda, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash statistik ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan (1-rasm).

Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash statistik ko‘rsatkichlar tizimi integral baholash, davriy tebranishlar va o‘zgaruvchanlik indikatorlari orqali takomillashtirilgan.

Shuningdek, dissertatsiya ishida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi umumiy (jamlama) indikator sifatida iqtisodiy subyektning rentabellik ko‘rsatkichi belgilab olingan. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining rentabellik ko‘rsatkichi darajasining qanchalik yuqori bo‘lishi, iqtisodiy subyekt faoliyatining shunchalik samarali ekanligidan darak beradi. Rentabellik darajasining manfiyligi mahsulot ishlab chiqarishning zararli ekanligini va uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish lozimligini bildiradi.

Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlar xo‘jalik faoliyati qanday tashkil etilganligi hamda uning iqtisodiyotdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun asos bo‘ladigan elementlarni aniqlashga xizmat qiladi. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligi statistik ko‘rsatkichlarini baholashda asosiy e‘tiborni hosildorlik ko‘rsatkichlari tahlili va uni oshirish chora-tadbirlariga qaratish kerak. Chunki natural ko‘rsatkich sifatida hosildorlik nafaqat yerdan foydalanish samaradorligini baholovchi, balki boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlari darajasini belgilashda ham muhim statistik ko‘rsatkich sifatida o‘rin egallaydi.

Qishloq xo‘jaligi statistikasida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining ekinlar hosildorligiga ta‘sir etuvchi omillar tabiiy, iqtisodiy va tashkiliy-agrotexnik turkumlarga ajratilib, har birining ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rniga baho berish maqsadga muvofiq (2-rasm).




1-rasm. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini baholovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi ⁷.

Tahlillarimizga ko‘ra, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida ekinlarning hosildorlik darajasi muntazam oshib borishi bu yerni ekishga tayyorlash, uni ekish, oziqlantirish, parvarish qilish va yig‘ishtirib olishda ilmiy asoslangan tadbirlarning tashkil etilishiga bog‘liq. Raqobat sharoitida qishloq xo‘jaligi, jumladan, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligiga yuqoridagi omillar bilan bevosita bozor muhiti omillari ham ta’sir etadi.

Shunday omillar sifatida fermer xo‘jaliklari ishlab chiqargan mahsulotlarning raqobatbardosh va bozor talabiga mos miqdor va sifatda bo‘lishi zarurligini alohida ta’kidlash joiz. Chunki talab bo‘lmasa, mahsulot sotilmaydi, bundan tashqari, bozor munosabatlarining rivojlanishi ishlab chiqarishning foyda olish maqsadida tashkil etilishini taqozo etib, mehnat unumdorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish kundalik muammoga aylanib bormoqda. Zero, dehqonning yil oxirida oladigan daromadi yil davomida xarajatlarni tejash darajasi va yetishtirgan mahsuloti sifatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

⁷Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari ekinlarining hosildorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar⁸.

Turli qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarini, jumladan, fermer xo'jaliklarida doimo ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari hamda usullari izlanadi. Buning uchun xo'jalik yuritishda agrotexnik, zootexnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan ilg'or yondashuvlarni joriy etish choralari ko'riladi.

Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining holati va rivojlanishini atroflicha baholash statistik ko'rsatkichlar tizimi asosida amalga oshiriladi.

Statistik ko'rsatkichlar – muayyan hodisa va jarayonlarning hajmi hamda miqdoriy nisbatini umumlashtiruvchi kategoriyalardir.

Mazkur ko'rsatkichlar meva-sabzavotchilik mahsulotlarini zamon va makonning turli darajalarida iste'mol qilishning holati, rivojlanishi va barqarorligini aks ettirish imkonini beradi. Ular individual hodisa va jarayonlar tavsifini, ularning guruh holatlari hamda individual birliklarning umumiy kompleksdagi tavsifini olish imkonini beradi.

Statistik ko'rsatkichlar tizimini tuzishning statistik talablariga ko'rsatkichlar tizimini iqtisodiy-statistik tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiqligi, tizim ko'rsatkichlarining taqqoslana olishligini ta'minlash, ularni hisoblab chiqishda yagona metodikaning mavjudligi, tizim ko'rsatkichlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi, tadqiqot obyektini aks ettirilishining kompleksligi va to'liqligi kabilarni kiritish zarur. Bundan tashqari, tahlil qilinganlikning eng maqbul (optimal) darajasi, statistik axborot olishning amaldagi tizimiga asoslangan ishonchli axborot bazaning

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mavjudligi, natijalarni iqtisodiy jihatdan talqin qilishning mumkinligi, tizimning yaxlitligi, izchilligi va bir xildagi davriyligi ham zarur. Mamlakat iqtisodiyotining o'zgarishi bilan statistik ko'rsatkichlar tizimi ham o'zgarishi kerak.

Hozirgi davrda ko'rsatkichlar tizimini tuzishga bo'lgan asosiy amaliy va metodologik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish yuz bermoqda. Bu, ayniqsa, shuning uchun ham muhimki, ijtimoiy hodisalarning sotsial-iqtisodiy tabiatidagi barcha o'zgarishlar statistik ko'rsatkichlar tizimida namoyon bo'lmoqda.

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan talablardan kelib chiqqan holda, meva-sabzavotchilik statistikasining tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak: sohaning har bir bosqichdagi holatini ishonchli va har taraflama yoritish; uning taraqqiyotidagi qonunlarni hamda eng mohiyatli o'zaro bog'liqliklarni ochib berish; ishlab chiqarishni amalga oshirish hamda uni tartibga solib turish chora-tadbirlarining samaradorligini baholash; mavjud bo'lgan nomutanosibliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning yo'llarini belgilash.

Fikrimizcha, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining bugungi kunda raqobatbardosh faoliyat yuritishlarini ta'minlash uchun:

birinchidan, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va tashkiliy-iqtisodiy faoliyatini baholovchi samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy qilish;

ikkinchidan, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va baholashda biologik jarayon, tabiiy-iqlim va demografik sharoitlar ko'zda tutilib, ularni ixtisoslashtirish va yiriklashtirish, islohotlarning keyingi bosqichlarida esa kooperatsiya subyektlariga jalb qilish istiqbolli yo'nalishlar sifatida hal etilishi lozim.

Qishloq xo'jaligi, u bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlar va xo'jalik yuritish subyektlarini tarkibiy isloh qilishning keyingi bosqichlari fermer xo'jaliklari hududiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil qilish va rivojlantirish asosida tarmoq samaradorligini oshirish yo'llarini asoslab berishni taqozo etadi. Lekin tahlillarning ko'rsatishicha, fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish bilan birga, kelajakda inobatga olinishi zarur bo'lgan ayrim salbiy omillar ham mavjud. Masalan, fermerlar o'z mahsulotlarini bozordagi talab va taklif o'rtasidagi nisbat, raqobat ta'sirida yuzaga keladigan narxlarda sotsalar, o'zlariga zarur bo'lgan ishlab chiqarish resurslarini esa odatda, ma'lum darajada monopolistik bozordan sotib oladilar. Jumladan, o'g'it, ehtiyot qismlar, qishloq xo'jaligi texnikalari, yoqilg'i-moylash materiallari va shu kabi moddiy resurslarni fermer xo'jaliklariga sotuvchi firma va tashkilotlar u yoki bu tartibda narxlarni nazorat qilish imkoniyatiga, ya'ni monopol ustunlikka egadirlar. Shu sababdan ham fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyati va samaradorligi ko'p jihatdan monopolistik narxlar ta'siri ostida shakllanadi.

Dissertatsiyaning "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ulardagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etish yo'llari" nomlangan ikkinchi bobida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi

mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini statistik tahlili, muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan.

“Meva-sabzavotchilik majmuyi tashkilotining yangiliklar kiritishni joriy qilish va tatbiq etishda innovatsiyalarga moyilligi deganda, uning ochiq resurslar va texnologiyalardan oqilona foydalanish; innovatsiyalar yaratish va ularni tijoratlashtirish siklini qisqartirishni ta‘minlaydigan samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar va moslashuvchan tashkiliy tuzilmalarni o‘z vaqtida yaratish; personalning ijodiy tashabbuslari, yuqori malakali mutaxassislar tajribasi va salohiyatidan foydalanish va rivojlantirish; yangiliklar kiritishga moyillikni ta‘minlash negizida raqobatbardoshlik strategiyasini shakllantirish qobiliyati tushuniladi”⁹.

Meva-sabzavotchilik majmuasida innovatsiyalarning asosiy turlari va yo‘nalishlarini tashkil qilish amalga oshiriladi. Bu ularning xilma-xilligi, shakli va qo‘llanilish usullari bilan bog‘liq. Shu bois innovatsion jarayonlarni boshqarish innovatsiyalarni turli sabablarga ko‘ra, tasniflashni o‘z ichiga oladi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi muhim jihatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Meva-sabzavotchilikka oid ilmiy adabiyotlar¹⁰da innovatsiyalarning seleksion-genetik; texnik va texnologik ishlab chiqarish; tashkiliy va boshqaruv; ijtimoiy va ekologik innovatsiyalar kabi turlari farqlanib, muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu agrar sektorda innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli boshqarishda muhim sanaladi. Innovatsiyalar ma‘lum bir xususiyatga ega va yagona guruhga tegishli maxsus yangiliklarni o‘z ichiga oladi. Bular: yangilik darajasi, tarqatish ko‘lami, samaradorligi, dastur doirasi va boshqalar.


Meva-sabzavotchilik mahsulotlaridan samarali foydalanish maqsadida innovatsiyalar turlarini takomillashtirish bajariladigan loyiha davomida natijalarga qarab, ularni qo‘llash doirasini kengaytirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining innovatsion faoliyatini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Bizningcha, meva-sabzavotchilikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun qayta ishlash sanoatini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish kerak. Lekin zamonaviy sharoitda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyati juda past.

Meva-sabzavotchilik sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmini yaratish uchun O‘zbekistonning har bir hududida ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik innovatsion markazlarni yaratishni taklif etildi. Meva-sabzavotchilik sohasida jadal innovatsion rivojlanishga hududning ilmiy, o‘quv, ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatini “yagona meva-sabzavotchilik sohasida innovatsion majmua”ga aylantirish, hududiy innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish asosida erishish mumkin (3-rasm).

⁹ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensilopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 179-b.

¹⁰ Chariyev Q.A. Xorijiy davlatlar qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlari va ulardan foydalanishga doir uslubiy tavsiyalar. – T.: UzBIITI. 2014. – 34 b.; Xushvaqtova X.S. Bozor sharoitida meva-sabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari. Iqt. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T., 2005. – 25 b.; Ergashev E.I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bog‘dorchilik va uzumchilik tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqt. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T., 2009. – 22 b.



3-rasm. Hududiy ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik innovatsion markazi modeli.¹¹

Taklif etilayotgan hududiy ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik innovatsion markazining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

hududiy meva-sabzavotchilik majmuasini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

meva-sabzavotchilik majmuasida hududiy innovatsiya siyosatini shakllantirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish usullarini takomillashtirish;

meva-sabzavotchilik xo'jaliklarining innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish;

meva-sabzavotchilik sohasida innovatsiyalar bozorini monitoring qilish;

meva-sabzavotchilik xo'jaliklari faoliyatining axborot-kommunikatsiya ta'minoti;

meva-sabzavot ishlab chiqarishda samarali innovatsiyalarni tanlash va dastlabki baholash;

meva-sabzavotchilik sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni joriy etishda konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Tadqiqot natijalari asosida hudud meva-sabzavotchilik majmuasini innovatsion rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan (1-jadval).

Yuqoridagi ma'lumotlar innovatsion faoliyatni moliyaviy, tashkiliy, marketing va axborot orqali ta'minlash, hududiy ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik innovatsion markazlarini tashkil etish, innovatsiyalarni samarali tatbiq etish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilishga sharoit yaratish mumkinligini ko'rsatadi.

Meva-sabzavotchilik majmuasida innovatsion jarayonlarni faollashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri kichik qishloq xo'jaligi va qayta ishlash korxonalarini (shu jumladan, dehqon xo'jaliklarini) yirik ishlab chiqarish tuzilmalariga hamkorlik asosida birlashtirish hisoblanadi. Bunday uyushqoqlikning tashkiliy shakli innovatsion rivojlanishning texnik va texnologik, tashkiliy, boshqaruv va iqtisodiy,

¹¹ Muallif ishlanmasi.

ijtimoiy-ekologik yo‘nalishlarini amalga oshirish imkonini beradigan ishlab chiqarishning yangi bir shakli bo‘lishi mumkin. Chunki meva-sabzavotchilik majmuasida kichik tovar ishlab chiqaruvchilarning birgalikdagi iqtisodiy faoliyatini tashkil etish moliyaviy va moddiy resurslarni birlashtirib, xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va erishilgan yutuqlarni joriy etish uchun keng miqyosli ishlab chiqarishdan foydalanishga imkon beradi.

1-jadval


Hududiy meva-sabzavotchilik majmuasini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari¹²

Innovatsiyalar	Kutilgan natijalar
Meva-sabzavotchilik sohasida	
1. Yerdan foydalanish va suvni tejash texnologiyalarining yangi tizimlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish.	1. Tuproq unumdorligini saqlash, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish.
2. Meva-sabzavotchilik majmuasida texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash uchun mashinalarni tejaydigan tizimni ishlab chiqish va joriy etish.	2. Sohada mehnat unumdorligini oshirish, mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish uchun xarajatlarni kamaytirish.
3. Xorijiy davlatlarning meva-sabzavotchilik sohasidagi ekinlarning unumdor turlarini hududning tuproq va iqlim sharoitlariga moslashtirish.	3. Yuqori hosildor yangi ekinlarni joriy etish hisobiga xarajatlarni pasaytirish.
4. Uyali texnika, molekulyar genetika va an’anaviy seleksiyadan foydalanib, kasalliklarga chidamli yangi ekinlarning unumdor turlarini yaratish.	4. Ekinlar hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash.
5. O‘simlik kasalliklari va zararkunandalarga qarshi kurashish maqsadida yuqori samarali biopreparatlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish.	5. Meva-sabzavotchilik mahsulotlarining hosildorligi va sifatini oshirish.

Bizning fikrimizcha, sohadagi raqobatbardoshlikni statistik baholashni meva-sabzavotchilik bozori konyukturasi o‘rganishdan boshlash muhim sanaladi. Jarayonda ishlab chiqaruvchi raqobatchilarning brend mahsuloti ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ish va statistik tahlil qilish, xaridorlar iste’mol hajmi va daromadlarini statistik o‘rganish, ishlab chiqaruvchi korxonalar, mahsulot va iste’molchilar bo‘yicha bozorni segmentlash orqali meva-sabzavotlar narxi, sifati va brend mahsulot raqobatbardoshligi bo‘yicha statistik hisob-kitob qilish maqsadga muvofiq. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, meva-sabzavot mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari va yo‘nalishlarini belgilash lozim (4-rasm).

Tashqi va ichki bozordagi kuchli raqobat muhiti sharoitida barqaror rivojlanayotgan va eksport salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlar tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, kuchli raqobat orqali shakllangan jahon bozoriga kirib borayotgan O‘zbekistonning taklif qilayotgan mahsulotlari eksporti dastlabki bosqichlarda o‘z samarasini bermaydi. Vaholanki, bunday holatda taklif qilinayotgan mahsulotlarning barqaror sotilishi hamda iste’mol xususiyatlari jihatidan afzalliklarga ega bo‘lishi uchun sifati va narxi bo‘yicha boshqa davlatlarning mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish talab etiladi.

¹² Muallif ishlanmasi.



4-rasm. Meva-sabzavot mahsulotlari raqobatbardoshligini statistik baholash tasnifi¹³.

Bunday jarayon jahon meva-sabzavot mahsulotlari bozorida ham kuzatiladi. Bu esa jahon bozoriga yuqori sifati, raqobatbardosh meva-sabzavot mahsulotlari taklif etishni taqozo qiladi.

Bozordagi kuchli raqobat muhiti sharoitida mahsulot ishlab chiqaruvchilardan korxonaning kuchli marketing strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shuningdek, meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar uchun ularning bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi marketing strategiyalarini amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini hozirgi holati va undagi asosiy

¹³ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

tendensiyalarni iqtisodiy-statistik tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida meva-sabzavot va uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va ularga ta’sir qiluvchi omillar, dinamik o‘zgarishlarni ko‘p omilli statistik tahlili yoritib berilgan. Mazkur bobda, shuningdek, meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirishdagi o‘rtacha hosildorlik dinamikasi xo‘jalikni yuritish shakllari bo‘yicha tahlil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha meva, sabzavot, uzum hosildorligining umumiy o‘zgarish ko‘rsatkichlari va tendensiyalari aniqlangan.

2-jadval

O‘zbekistonda sabzavotchilik, bog‘dorchilik va uzumchilikning umumiy dinamikasi, (barcha xo‘jalik toifalarida)¹⁴

Yillar	Sabzavotchilik			Bog‘dorchilik			Uzumchilik		
	maydon, ming gektar	yalpi hosil, ming t.	hosildorlik, s/ga	maydon, ming gektar	yalpi hosil, ming t.	hosildorlik, s/ga	maydon, ming gektar	yalpi hosil, ming t.	hosildorlik, s/ga
2010	173,0	6346,5	252,5	184,8	1710,3	92,6	108,7	987,3	90,8
2011	175,4	6994,0	263,7	193,1	1878,8	97,3	111,5	1090,2	97,8
2012	183,8	7767,4	265,6	196,0	2052,8	104,7	111,1	1206,0	208,6
2013	189,4	8518,4	270,9	201,3	2261,1	112,3	113,8	1322,1	116,1
2014	192,0	9286,7	268,3	217,6	2490,6	116,0	119,4	1441,2	120,7
2015	194,0	10129,3	271,0	214,3	2052,8	128,1	128,3	1579,3	133,1
2016	206,6	10184,0	271,1	279,6	2612,9	134,5	131,2	1613,1	142,3
2017	189,7	10219,9	253,6	221,0	2614,9	118,3	114,5	1625,5	157,0
2018	219,0	9760,3	237,1	222,5	2706,2	121,6	113,3	1589,8	157,5
2019	220,0	10215,1	235,6	232,2	2752,7	118,5	120,2	1603,3	153,5
2020	222,8	10431,4	234,4	241,0	2812,6	116,7	128,2	1606,9	152,0
2021	233,7	10850,2	236,0	233,7	2852,6	122,1	133,7	1695,3	154,7
2022	240,5	11162,9	238,1	253,5	2999,3	116,4	136,8	1760,6	155,3
2023	247,9	11553,7	231,1	258,1	3121,7	120,9	138,4	1731,7	153,4
2024	282,1	11994,2	204,3	272,5	3238,8	118,7	139,7	1833,0	158,8
mutlaq o‘shish	109,1	5647,7	-48,2	87,7	1528,5	26,1	31,0	845,7	68,0
foiz hisobida	163,0	188,9	80,9	147,4	189,3	128,6	128,5	185,7	174,8

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar o‘rganilayotgan yillarda respublikada sabzavotchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik barqaror rivojlanganligini ko‘rsatadi. 2024-yilda 2010-yilga nisbatan sabzavotchilik maydoni 109,1 ming gektar yoki 71,3 foizga, ko‘p yillik mevazorlar maydoni 87,7 ming gektar yoki 47,4 foizga, uzumzorlar maydoni 31,0 ming gektarga ko‘payib, 28,5 foizga oshgan.

Bog‘dorchilikda o‘rtacha hosildorlik 2010-yildagi 92,6 s/ga.dan 2024-yilda 118,7 s/ga.ni tashkil etdi, natijada, yalpi hosil 3238,8 ming tonnaga yetkazilib,

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

89,3 foizlik o'sish ta'minlandi. Tadqiq etilayotgan davr mobaynida sabzavotchilikda yalpi hosil 88,9 foizga, uzumchilikda esa 85,4 foizga ortgan.

Olib borilgan tahlil negizida O'zbekistonda sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilikni yanada rivojlantirishga oid ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirish tuzilmasi statistik tahlil qilingan. 2024-yil ma'lumotlariga asosan, sabzavotlar, meva va rezavorlar yalpi hosili hajmining 3,0, 2,8 va 2,4% qishloq xo'jaligi korxonalaridan ishlab chiqarilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning yangi shakli hisoblangan fermer xo'jaliklarining salmog'i mos ravishda 36,5, 42,4 va 44,7% teng bo'lgan. Aytish joizki, 2024-yilda yetishtirilgan sabzavotlar, meva va rezavorlar yalpi hosili hajmining qolgan qismi dehqon xo'jaliklari ulushiga to'g'ri kelgan.

Sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilikka haqqoniy baho berish uchun aholi jon boshiga hisoblaganda sabzavot, meva va uzum yetishtirish haqidagi ma'lumotlar asos bo'ladi. Yuqorida qayd etilganidek, insonlarning ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyatda ishlab chiqarish va uning muayyan tarmoqlari faoliyati samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha meva, sabzavot, uzum hosildorligining umumiy o'zgarishi ko'rsatkichlari va tendensiyalari aniqlangan. 2001–2024-yillarda respublika miqyosida sabzavotchilik bo'yicha hosildorlik parametrlari dinamikasi trendi shakllantirilib, uning barqarorligi variatsiya koeffitsiyenti orqali hisoblangan. Tahlil etilgan yillarda respublika sabzavotchiligidagi hosildorlik ko'rsatkichlari dinamikasi va uning trendi o'rtasidagi tafovut asnosida hisoblangan variatsiya koeffitsiyenti parametri 13,01 foizni tashkil etdi va uning ishonchligi qanoatlantirdi hamda trendning barqarorligini ko'rsatib berdi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavot ekinlari va toklarning o'rtacha hosildorligi, s/ga¹⁵

Hududlar	2020-yil			2024-yil		
	Sabzavotlar	Meva-rezavor	Uzum	Sabzavotlar	Meva-rezavor	Uzum
Qoraqalpog'iston Respublikasi	234,4	105,8	90,2	137,3	118,7	93,8
Andijon	291,2	218,6	229,7	247,4	219,3	218,3
Buxoro	241,2	223,9	239,7	224,3	195,5	240,0
Jizzax	225,5	71,9	77,1	249,0	75,7	85,9
Qashqadaryo	251,8	103,8	119,3	159,6	100,1	118,8
Navoiy	250,1	156,4	160,5	240,8	151,8	159,1
Namangan	254,1	104,2	183,0	181,7	141,2	229,1
Samarqand	203,3	107,8	147,7	198,6	103,9	156,3
Surxondaryo	270,5	95,2	93,0	249,5	89,6	95,1
Sirdaryo	198,4	80,5	106,8	205,4	75,7	142,7
Toshkent	249,7	55,2	86,4	213,9	61,0	92,4
Farg'ona	213,6	80,8	293,0	168,4	86,6	246,3
Xorazm	255,6	141,8	167,0	263,8	128,3	157,2
Respublika bo'yicha o'rtacha (x)	234,4	116,7	152,0	204,3	118,7	158,8

¹⁵ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Meva-sabzavot va uzum mahsulotlari eksporti O‘zbekistonda xorijiy valyutadagi tushumlarning muhim moddalaridan biriga aylanishi zarur. Shu sababli kelajakda mevali daraxtlar, sabzavot ekinlari va toklar hosildorligini oshirish maqsadga muvofiq (3-jadval).

Jadvaldan ekinlarning o‘rtacha hosildorligi respublika hududlarida bir-biridan sezilarli farq qilishi ko‘rinadi. Masalan, 2024-yilda sabzavotlarning o‘rtacha hosildorligi gektar hisobida Qoraqalpog‘iston Respublikasida 137,3 sentnerdan Xorazm viloyatida 263,8 sentnergacha, ya‘ni 92,0 foizga yuqori. Mevazorlarning o‘rtacha hosildorligi Toshkent viloyatida 61,0 sentnerdan Andijon viloyatida 219,3 sentnergacha, ya‘ni 3,6 baravar, uzum hosildorligi Jizzax viloyatida 85,9 sentnerdan Farg‘ona viloyatida 246,3 sentnergacha, ya‘ni 2,9 baravar ko‘p. Mamlakatimizda 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sabzavotlar hosildorligi 30,1 s/ga kamaygan bo‘lsa, aksincha, meva va rezavorlar hosildorligi 2,0 s/ga, uzum hosildorligi 6,8 s/ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hosildorlikni oshirish respublika meva-sabzavot va uzum quyi majmuasini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi, chunki viloyatlarda mahsulot yetishtirishni, ishlov beriladigan agrotexnik tadbirlarni o‘z muddatida va yer maydonlarini kengaytirish hisobiga ko‘paytirish imkoniyatlari mavjud.

Shunday qilib, meva-sabzavot va uzum quyi majmuasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy sharoitlari uzoq vaqt davomida xo‘jalik yuritish umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimida bozor tamoyillariga asoslangan islohotlar asosida shakllandi. Meva-sabzavot va uzum mahsulotlari ishlab chiqarishda ham xo‘jalik yuritish shakllarida o‘zgarishlar ro‘y berdi (4-jadval).

4-jadval

O‘zbekistonda xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirish tuzilmasi, yakunga nisbatan foizlarda¹⁶

Ko‘rsatkichlar	1991	1995	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
I. Sabzavotlar											
<i>Qishloq xo‘jaligi korxonalar</i>	50,9	34,0	20,1	9,1	0,6	0,9	2,4	3,0	3,6	4,9	5,0
<i>Fermer xo‘jaliklari</i>	-	2,5	4,9	13,7	35,1	34,1	35,2	36,5	36,9	36,8	37,7
<i>Dehqon xo‘jaliklari</i>	49,1	63,5	75,0	77,2	64,3	65,0	62,4	60,5	63,1	58,3	57,3
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
II. Meva va rezavorlar											
<i>Qishloq xo‘jaligi korxonalar</i>	47,2	41,9	36,8	21,8	1,1	2,2	3,3	2,8	3,5	3,5	4,8
<i>Fermer xo‘jaliklari</i>	-	1,8	4,3	18,5	47,7	45,8	40,5	42,4	44,6	45,1	46,5
<i>Dehqon xo‘jaliklari</i>	52,8	56,3	58,9	59,7	51,2	52,0	56,2	54,8	51,9	51,4	48,7
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
III. Uzum											
<i>Qishloq xo‘jaligi korxonalar</i>	85,7	79,4	62,3	39,4	0,8	1,6	2,3	2,4	2,6	2,9	2,8
<i>Fermer xo‘jaliklari</i>	-	1,8	4,7	13,9	56,4	53,4	41,3	44,7	45,6	44,5	52,6
<i>Dehqon xo‘jaliklari</i>	14,3	18,8	33,0	46,7	42,8	45,0	56,4	52,9	51,8	47,1	49,5
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

1991-yilda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari korxonalar asosiy ishlab chiqaruvchilari jamoa xo‘jaliklari shaklidagi qishloq xo‘jaligi va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar shaklidagi yakka tartibdagi dehqon xo‘jaliklari hisoblangan. Ularning har

¹⁶ www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

biriga sabzavot, meva va rezavorlar bo'yicha ishlab chiqarishning yarmi to'g'ri kelgan, uzum yetishtirishda esa jamoa xo'jaliklari ulushi 85,7 foizni tashkil qilgan.

2024-yilda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirish tuzilmasi 1991-yil bilan qiyoslaganda sezilarli darajada o'zgardi. Mahsulot turlari bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalarining ulushi keskin pasayib, xo'jalik yuritishning yangi shakli – fermer xo'jaliklari ulushi sabzavotchilik sohasida 37,7 foizga, meva va rezavorlarda 46,5 foizga, uzum yetishtirishda esa 49,5 foizga yetdi.

Dehqon xo'jaliklarining meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirishdagi ulushi barqaror bo'lib kelmoqda. Bu tushunarli, albatta, chunki faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy sharoitlari qishloq xo'jaligida asosiy mahsulot yetishtiruvchilar sifatida tan olingan xo'jalik yuritishning fermerlik shaklidan unchalik farq qilmaydi. Masalan, 2024-yil qishloq xo'jaligi mahsulotlari yalpi ishlab chiqarishida fermer xo'jaliklarining ulushi 30,6 foizni, dehqon xo'jaliklarining ulushi esa 62,0 foizni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi atigi 7,4 foizga teng¹⁷.

Yuqoridagilarga tayanib, respublikada xo'jalik yuritishni xususiy shaklga o'tkazish yo'li bilan qishloq xo'jaligini tashkiliy-iqtisodiy isloh qilish tugallanayotgani va bozor munosabatlariga asoslangan yangi bosqich boshlanayotganini ta'kidlash mumkin.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri qishloq xo'jalik ekinlarining bir gektar yer maydoni hisobiga hosildorligidir. 1 gektar yer maydonidan olinadigan hosil va uning o'zgarishi qator omillar, xususan, xo'jalik yuritish shakllarining ta'siridan dalolat beradi.

So'nggi yillarda respublikada meva, uzum va sabzavot ekinlari hosildorligi xo'jalik yuritish shakllariga qarab turli darajada o'zgargan (5-jadval).

Tahlillar shundan dalolat beradiki, birinchidan, oxirgi uch yil ichida meva, uzum va sabzavotlar hosildorligi 1 gektar maydon hisobiga o'sdi; ikkinchidan, xo'jalik yuritish shakliga qarab bu ekinlar hosildorligi ko'rsatkichlarida katta farq borligi ma'lum bo'ldi. Ko'rsatilgan ekin turlari bo'yicha eng kam hosil shirkat turidagi qishloq xo'jaligi korxonalarida olingan, eng yuqori hosildorlik esa yakka tartibdagi dehqon xo'jaliklarida kuzatilgan. Bu sabzavotlar hosildorligi bo'yicha farq faqat 2008-yili sezilarsiz, qishloq xo'jaligi korxonalarida esa o'rtacha hosildorlik hatto dehqon xo'jaliklaridagiga nisbatan biroz yuqori bo'ldi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish natijasida respublikada hozircha samarali ishlayotgan atigi bir nechta shirkat xo'jaliklari qoldi.

Shu bilan birga, mazkur bobda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar (yalpi hosil, ekin maydoni, hosildorlik) dinamikasi aniqlangan va ularga ta'sir qiluvchi ekstensiv va intensiv omillar indekslar asosida baholangan. Shuningdek, dissertatsiya ishida metodik jihatdan, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining yakuniy natijaviy ko'rsatkichiga ekstensiv va intensiv omillar ta'sirining salmog'ini aniqlash formulasi ishlab chiqilgan.

¹⁷ O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2017–2024-y. Statistik to'plam. – T.: Milliy. stat. qo'm., 2025. 23-b.

**2005–2024-yillarda respublikada meva, uzum va sabzavot ekinlarining
1 gektar yer maydonidan o‘rtacha hosildorligi, s/ga¹⁸**

Ko‘rsatkich	2005-y.	2010-y.	2020-y.	2024-y.
I. Sabzavotlar				
<i>O‘rtacha barcha toifalarida</i>	215,8	252,5	271,0	204,3
<i>Jumladan:</i>				
<i>qishloq xo‘jaligi korxonalari</i>	168,1	178,6	196,2	165,3
<i>fermer xo‘jaliklari</i>	181,6	214,8	261,7	223,5
<i>dehqon xo‘jaliklari</i>	230,7	260,1	277,3	201,7
II. Meva va rezavorlar				
<i>O‘rtacha barcha toifalarida</i>	62,3	92,6	128,1	118,7
<i>Jumladan:</i>				
<i>qishloq xo‘jaligi korxonalari</i>	36,8	48,1	61,1	49,6
<i>fermer xo‘jaliklari</i>	50,5	76,3	99,0	95,5
<i>dehqon xo‘jaliklari</i>	92,2	132,4	183,8	189,0
III. Uzum				
<i>O‘rtacha barcha toifalarida</i>	64,7	90,8	133,1	158,8
<i>Jumladan:</i>				
<i>qishloq xo‘jaligi korxonalari</i>	50,5	64,1	77,5	86,6
<i>fermer xo‘jaliklari</i>	51,0	86,3	108,3	125,5
<i>dehqon xo‘jaliklari</i>	94,7	140,6	189,0	230,1

Mazkur tadqiqotda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun “mikro-panel” (fermer ID) asosida “tushum – xarajat – resurs – logistika” ko‘rsatkichlarini yagona formatda yig‘ish imkonini beruvchi raqamli hisobot protokolini joriy etish orqali mikro-ma’lumotlarning to‘liq qamrab olinmasligi muammosini bartaraf etishga qaratilgan ilmiy yondashuv asoslandi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mikro-ma’lumotlar ahamiyati yanada yuqoriroq, chunki ushbu tarmoqda ishlab chiqarish natijalari ko‘plab omillar – iqlim, yer unumdorligi, texnologiya darajasi, mehnat resurslari va bozor konyukturasiga bog‘liq. Shu bois agregat ko‘rsatkichlar ko‘p hollarda real vaziyatni aks ettirmaydi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda fermer xo‘jaliklari darajasida ishlab chiqarish xarajatlari va tushumlar bo‘yicha to‘liq mikro-ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan taqdirda qishloq xo‘jaligi siyosatida “axborot asimmetriyasi” yuzaga kelishi ta’kidlanadi. Bu holat, o‘z navbatida, subsidiyalar taqsimoti, kredit resurslarini yo‘naltirish va eksport strategiyasini ishlab chiqishda samarasiz qarorlarga olib keladi.

Nazariy jihatdan mikro-ma’lumotlar tizimli ravishda yig‘ilishi panel ma’lumotlar (panel data) konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Panel ma’lumotlar vaqt o‘tishi bilan bir xil subyektlar bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ishni nazarda tutadi va bu dinamik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq amalda ko‘plab mamlakatlarda fermer xo‘jaliklari uchun bunday panel tizimlar mavjud emas yoki ular faqat ayrim parametrlarni qamrab oladi. Masalan, logistika xarajatlari ko‘p hollarda umuman hisobga olinmaydi yoki umumiy summa sifatida kiritiladi. Bu esa mahsulot

¹⁸ Manba: Селское хозяйство Республики Узбекистан 2006. – Т.: 2007. – 48 с.; O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2010–2024-y. Statistik to‘plam. – Т., 169 b.; O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2021-2024-y. Statistik to‘plam. – Т., – 214-243-b.

tannarxini noto'g'ri hisoblashga sabab bo'ladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda ilgari surilayotgan "mikro-panel (fermer ID)" konsepsiyasi fermer xo'jaliklarini yagona identifikatsiya tizimi asosida monitoring qilish, ularning moliyaviy, resurs va logistika ko'rsatkichlarini standartlashtirilgan formatda yig'ishni nazarda tutadi. Bu yondashuv mikro-ma'lumotlarning parchalanganligi va taqqoslab bo'lmashligi muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Meva-sabzavotchilikda tannarxni aniq hisoblash uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu yondashuvda tushumlar, ishlab chiqarish xarajatlari, resurslar sarfi va logistika ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi lozim. Mazkur tadqiqotda taklif etilayotgan raqamli hisobot protokoli ana shu kompleks yondashuvni amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan. Taklif etilayotgan ilmiy yangilikning markazida fermer xo'jaliklari uchun "mikro-panel" (Farmer ID) konsepsiyasi turadi. Ushbu konsepsiya har bir fermer xo'jaligini yagona raqamli identifikator asosida qayd etish va uning faoliyatini vaqt kesimida kuzatib borishni nazarda tutadi. Bunda har bir fermerning ishlab chiqarish, moliyaviy, resurs va logistika ko'rsatkichlari standartlashtirilgan formatda yig'iladi.

Xalqaro amaliyotda bunga o'xshash tizimlar mavjud. Masalan, AQShda FarmLogs platformasi fermerlarga o'z xarajatlarini raqamli formatda qayd etish imkonini beradi, ammo u davlat statistikasi bilan integratsiyalashmagan. Yevropa Ittifoqida esa Eurostat doirasida fermerlar bo'yicha mikro-ma'lumotlar yig'iladi, ammo logistika va kredit qiymati kabi parametrlar to'liq qamrab olinmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda taklif etilayotgan mikro-panel tizimi mavjud modellarga nisbatan keng qamrovli va integratsiyalashgan yondashuvni ifoda etadi. U faqat hisob yuritish vositasi emas, balki iqtisodiy tahlil va qaror qabul qilish uchun kompleks platforma sifatida qaraladi. Taklif etilayotgan raqamli hisobot protokoli fermer xo'jaliklari darajasidagi iqtisodiy jarayonlarni tizimli ravishda qayd etish, standartlashtirish va tahlil qilishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu protokolning asosiy maqsadi – fermer faoliyatini aks ettiruvchi mikro-ma'lumotlarni yagona formatda yig'ish, ularning taqqoslanishini ta'minlash va qaror qabul qilish jarayonida qo'llanish imkoniyatini kengaytirishdan iborat.

Taklif etilayotgan mikro-panel (Farmer ID) asosidagi raqamli hisobot protokoli nafaqat fermer xo'jaliklari darajasida, balki mintaqaviy va milliy darajada ham iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Ushbu yondashuvning asosiy iqtisodiy samarasi, avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarining to'liq va shaffof hisobga olinishi bilan bog'liq.

Birinchi navbatda, mahsulot tannarxining aniq hisoblanishi fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Amalda tannarxni noto'g'ri baholash natijasida fermerlar bozorda o'z mahsulotini past narxda sotishga majbur bo'ladi yoki aksincha, bozor narxlariga moslasha olmaydi. Taklif etilayotgan tizimda esa har bir xarajat elementi (ishchi kuchi, resurslar, kredit qiymati, logistika) alohida qayd etilib, mahsulot narxi iqtisodiy asoslangan holda shakllantiriladi.

Ikkinchidan, mazkur yondashuv kredit munosabatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Banklar uchun fermerlarning real moliyaviy holatini baholash imkoniyati kengayadi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligida kredit risklarini aniq baholash uchun mikro-ma'lumotlarning yetishmasligi moliyaviy inklyuziyaning past darajada bo'lishiga olib keladi. Mikro-panel tizimi

orqali har bir fermerning ishlab chiqarish tarixi, foydalilik dinamikasi va risk profili shakllantirilib, kredit ajratishda subyektivlik kamayadi.

Uchinchidan, davlat siyosati nuqtayi nazaridan mazkur tizim subsidiyalar, grantlar va boshqa qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini maqsadli yo'naltirish imkonini beradi. Agar ma'lumotlar agregatlashgan holda emas, balki mikro-darajada mavjud bo'lsa, davlat resurslari samaradorligi yuqori bo'lgan xo'jaliklarga emas, balki qo'llab-quvvatlashga haqiqatan ehtiyoj sezayotgan fermerlarga yo'naltirilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u meva-sabzavotchilik sohasida mikro-ma'lumotlar asosida integratsiyalashgan tahlilni amalga oshirish uchun yangi konseptual model taklif etadi. Aniqroq aytganda, tadqiqotda ilgari surilgan yondashuv quyidagi ilmiy jihatlar bilan ajralib turadi:

birinchidan, fermer xo'jaliklari uchun yagona raqamli identifikatsiya tizimi (Farmer ID) asosida panel ma'lumotlar shakllantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu iqtisodiy tahlilda vaqt kesimida dinamik o'zgarishlarni o'rganish imkonini beradi va an'anaviy kesimli ma'lumotlarga nisbatan yuqori aniqlikni ta'minlaydi;

ikkinchidan, tannarx tahliliga resurslar va logistika omillarini integratsiyalashgan holda kiritish taklif etildi. Ko'plab mavjud tadqiqotlarda tannarx faqat ishlab chiqarish xarajatlari bilan cheklanadi. Mazkur tadqiqot esa logistika, saqlash, tashish va yo'qotishlar kabi omillarni ham to'liq inobatga oladi.

uchinchidan, raqamli hisobot protokoli konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu protokol faqat ma'lumotlarni yig'ish vositasi emas, balki iqtisodiy tahlil, prognozlash va qaror qabul qilish uchun platforma sifatida qaraladi.

to'rtinchidan, taklif etilayotgan yondashuv qishloq xo'jaligida mikro-iqtisodiy ma'lumotlarni davlat statistikasi tizimiga integratsiyalash imkoniyatini ochib beradi. Bu statistik tahlilning aniqligini oshirish va makroiqtisodiy modellashtirishda ishonchli natijalarga erishish imkonini beradi.

Shu jihatlar bilan mazkur tadqiqot nafaqat amaliy, balki nazariy ahamiyatga ham ega bo'lib, agrar iqtisodiyotda mikro-ma'lumotlar asosida tahlil olib borishning yangi metodologik asosini shakllantiradi. Mazkur tadqiqotda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari uchun mikro-panel (Farmer ID) asosida "tushum – xarajat – resurs – logistika" ko'rsatkichlarini yagona formatda yig'ish imkonini beruvchi raqamli hisobot protokolini joriy etish konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud hisobot tizimlari fermer xo'jaliklari darajasidagi iqtisodiy jarayonlarni to'liq qamrab ololmaydi, natijada, tannarx, foydalilik va risklar noto'g'ri baholanadi. Taklif etilayotgan yondashuv esa mikro-ma'lumotlarni to'liq qamrab olish, ularni standartlashtirish va tahlil qilish orqali mazkur muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur konsepsiya qishloq xo'jaligida raqamlashtirish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish, davlat siyosatida maqsadli qarorlar qabul qilish va fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Dissertatsiyaning "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari" deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida meva-sabzavot va uzum mahsulotlari sifatiga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholash, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ekonometrik

modellarini ishlab chiqish hamda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari quyidagi majmuasini statistik prognozlash kabi masalalar yoritilgan.

Meva-sabzavotchilik klasterlari, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, agrologistika markazlari va sovitkich omborlarini barpo etish, eksportga yo'naltirilgan intensiv bog'lar va issiqxonalarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mazkur islohotlarning hosildorlik, yetishtirish hajmlari, eksport salohiyati, resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir kuchini ilmiy jihatdan baholash va kelgusi tendensiyalarni aniqlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Meva-sabzavotchilik tarmog'ining hududlar (viloyat/tuman) va yillar kesimidagi ma'lumotlari panel xarakterga ega bo'lgani sababli, panel regressiya modeli quyidagi ko'rinishda qo'llaniladi:

$$Y_{it} = \alpha + \beta_1 X_{it} + \beta_2 Z_{it} + \beta_3 W_{it} + \mu_i + \epsilon_{it} \quad (1)$$

bu yerda:

Y_{it} — hosildorlik yoki mahsulot yetishtirish hajmi (i – hudud, t – vaqt);

X_{it} — agrotexnika omillari (o'g'it miqdori, suv ta'minoti, texnika parki, mehnat haydov potentsiali);

Z_{it} — iqlim ko'rsatkichlari (o'rtacha harorat, yog'ingarchilik, namlik, suv resurslari);

W_{it} — bozor va institutsional omillar (eksport, inflyatsiya, narxlar indeksi, subsidiyalar, kredit miqdori);

μ_i — hududga xos fiks effekt (latent characteristics);

ϵ_{it} — tasodifiy xatolik.

Ushbu tadqiqotda 2010–2024-yillar davomida fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan sabzavotlar, meva va rezavorlar va uzum mahsulotlari bo'yicha shakllangan statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik jihatdan baholaymiz. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (Y) natijaviy ko'rsatkich sifatida tanlanib, unga ta'sir etuvchi omillar sifatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (X_1), hosildorlik darajasi (X_2) hamda ekin maydoni hajmi (X_3) jalb qilindi. Ma'lumotlar Excel muhitida dastlabki qayta ishlashdan o'tkazildi, korrelyatsion tahlil amalga oshirildi va ko'p omilli chiziqli regressiya modeli baholandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2010–2024-yillar mobaynida fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Mazkur davrda ishlab chiqarish hajmi 2152,7 ming tonnadan 4514,5 ming tonnagacha oshib, qariyb 1,1 barobarga ko'paygan. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 75,4 kg dan 121,5 kg gacha o'sdi, bu esa ishlab chiqarishning intensiv rivojlanishidan dalolat beradi. Ekin maydonlarining ayrim yillarda qisqarishi (2010-yildagi 59 ming gadan 2024-yilda 53,5 ming ga gacha) hosildorlik darajasi va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir etgan.

Mazkur jarayonlar sektorning samaradorlikni oshirish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar, texnologik modernizatsiya, suv resurslaridan oqilona foydalanish, agrotexnik tadbirlarning sifat jihatidan yaxshilanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Tahlilda quyidagi ko'p omilli regressiya modeli baholandi: $Y=708.36+45.92X_1-4.41X_2-16.62X_3$. Modelning umumiy statistik ko'rsatkichlari yuqori ishonchlilik darajasini namoyon etadi. Jumladan:

$R^2=0,9898$ – natijaviy ko'rsatkichdagi o'zgarishlarning 98,98 foizi modelga kiritilgan omillar bilan izohlanadi;

Adj. $R^2 = 0,9869$ – modelning moslik darajasi juda yuqori;

F -statistika = 354,59, $p<0,0000000001$ – model umumiy holda statistik jihatdan ahamiyatli;

Har bir koeffitsiyentning t -statistikasi va p -qiymati ularning individual ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Regressiya koeffitsiyentlari talqini quyidagicha:

Aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish (X_1) ($\beta=+45,92$; $p<0,00000000035$). Natijalar X_1 omiling eng katta ta'sir kuchiga ega ekanini ko'rsatadi. X_1 1 birlikka oshganda, umumiy ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 45,9 ming tonnaga oshadi. Bu omil iqtisodiy-demografik talabning ishlab chiqarishga bevosita o'tishini va bozor mexanizmlarining faol ishlashini bildiradi.

Hosildorlik (X_2) ($\beta=-4,41$; $p<0,001$). Hosildorlik ko'rsatkichining salbiy koeffitsiyenti bir qarashda nomuvofiqdek ko'rinsa-da, iqtisodiy mazmuni mavjud: hosildorlik yuqori bo'lgan yillarda ekin maydoni qisqargan bo'lib, bu umumiy ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, ayrim yillardagi agrotexnik eksperimentlar natijasida hosildorlik oshgan bo'lsada, umumiy ishlab chiqarish hajmi nisbatan past bo'lgan.

Ekin maydoni (X_3) ($\beta=-16,62$; $p=0,004$). Ekin maydonining salbiy koeffitsiyenti yer resurslarining kengayishi doimo samaradorlikni oshirmasligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, qo'shimcha maydonlar asosan past unumli yerlar bo'lgan va ularning jalb qilinishi umumiy ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirgan.

Yuqoridagi ekonometrik baholash natijalari fermer xo'jaliklarida sabzavot ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy qonuniyatlari aniq shakllanganligini ko'rsatadi. Natijalar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

Sabzavot yetishtirish hajmining asosiy determinant omili aholi jon boshiga ishlab chiqarish darajasi bo'lib, bu ishlab chiqarishning intensiv rivojlanishi va bozor talabining shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Hosildorlik darajasidagi o'zgarishlar umumiy ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi; bu ekin maydonlari va hosildorlik o'rtasida mavjud strukturaviy nomutanosibliklar bilan izohlanadi. Ekin maydonlarining kengayishi samaradorlikni oshirishga olib kelmaydi; aksincha, yer resurslaridan samarali foydalanish va intensivlashtirish ustuvor yo'nalish bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Modelning yuqori moslik darajasi tahlilda foydalanilgan omillar fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyatining strategik yo'nalishlarini to'g'ri aks ettirayotganini tasdiqlaydi. Fermer xo'jaliklarida meva va rezavorlar ishlab chiqarish hajmini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida ko'p omilli regressiya tahlili amalga oshirildi.

Tahlil asosida qurilgan regressiya tenglamasi quyidagicha:

$$Y=-804,55+36,98X_1-5,14X_2+6,47X_3 \quad (2)$$

Omillar ta'sirining ekonometrik tahlili:

Aholi jon boshiga yetishtirilgan mahsulot hajmi (X_1). Koeffitsiyent 36,98 bo'lib, aholi jon boshiga ishlab chiqarish 1 kg ga oshganda, meva va rezavorlar umumiy ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 36,98 ming tonnaga ko'payadi. p -qiymatning juda kichik bo'lishi (0,00011) bu omilning statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Ushbu omil ichki iste'mol bozori talabiga moslashuvning uzviy ta'sirini aks ettiradi. Ekin maydonlari (X_3) koeffitsiyent 6,47 bo'lib, ekin maydonining 1 ming gektarga oshishi ishlab chiqarish hajmini o'rtacha 6,47 ming tonnaga oshishini ko'rsatadi. p -qiymatning juda kichik bo'lishi ($p=0,000000008$) ushbu omilning kuchli statistika ahamiyatini tasdiqlaydi. Bu natija meva yetishtirishda ekstensiv usul, ya'ni ekin maydonlarining kengayishi ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

O'tkazilgan ekonometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston fermer xo'jaliklarida meva va rezavorlar ishlab chiqarish hajmini shakllantirishda asosiy rolni ikki omil, ya'ni aholiga jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi hamda ekin maydonlarining kengayishi asosiy rol o'ynaydi. Har ikki omilning yuqori statistik ahamiyatga egaligi ishlab chiqarish jarayonining talab va resurslar bilan chambarchas bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan uzum hajmini shakllantiruvchi omillar bo'yicha o'tkazilgan ko'p omilli regressiya tahlili uzum ishlab chiqarish hajmi (Y) bilan uchta asosiy omil aholiga jon boshiga to'g'ri keladigan uzum ishlab chiqarilishi (X_1), hosildorlik darajasi (X_2) va ekin maydonlari (X_3) o'rtasida yuqori darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Modelning umumiy statistik ko'rsatkichlariga ko'ra, aniqlik darajasi juda yuqori bo'lib, $R^2=0.9884$, ya'ni ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarning 98,8 foizi tanlangan omillar bilan izohlanadi. Normalashgan R^2 qiymati (0.9853) modelning tanlangan regressorlarga nisbatan barqarorligini tasdiqlaydi.

F -statistikaga ko'ra ($F=313.15$; $p<0.000000001$), model butunlay ahamiyatli hisoblanadi va omillar yig'indisi ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tahlil natijalari barcha regressorlarga tegishli t -statistikalarning yuqori, p -qiymatlarning esa juda kichik (<0.001) ekanini ko'rsatdi. Bu esa har bir omilning ishlab chiqarish hajmini aniqlashda statistik ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.

Regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y=-590.13+18.07X_1+5.03X_2+4.69X_3 \quad (3)$$

Ushbu tenglamadan ko'rinadiki, aholiga jon boshiga ishlab chiqarish (X_1) koeffitsiyenti 18.07 ni tashkil etadi, bu esa ushbu ko'rsatkich 1 kg oshganda, umumiy ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 18 ming tonnaga oshishini bildiradi. Bu omil uzum yetishtirishning ichki iste'mol bilan bog'liqligining yuqori darajada ekanini ko'rsatadi. Hosildorlik (X_2) bo'yicha koeffitsiyent 5.03 bo'lib, hosildorlikning 1 sentnerga oshishi ishlab chiqarish hajmini 5 ming tonnaga kengaytiradi. Bu omil agronomik innovatsiyalar, o'g'itlash, suv ta'minoti va agrotexnik tadbirlar samaradorligini aks ettiradi. Ekin maydonlari (X_3) bo'yicha koeffitsiyent 4.69 bo'lib, ekin maydonining har 1 ming gektarga oshishi ishlab chiqarish hajmiga qo'shimcha 4.7 ming tona ta'sir ko'rsatadi. Bu omil yer resurslaridan foydalanish intensivligi va ekstensiv omillarning ahamiyatli ekanini bildiradi.

Umuman olganda, ekonometrik model natijalari O‘zbekiston uzumchilik tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmini oshirishda intensiv rivojlanish omillari sifatida hosildorlikni oshirish va ichki iste‘mol bozoriga yetkazib berish hajmining kengayishi muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Shuningdek, ekstensiv omil bo‘lgan ekin maydonlari ham sezilarli ahamiyatga ega bo‘lib, yer resurslarini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalar tarmoqda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, hosildorlikka ta‘sir qiluvchi texnologiyalarni joriy etish va ichki bozor talabining barqaror o‘shishini ta‘minlash orqali uzum ishlab chiqarishni tizimli ravishda rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Quyidagi jadval 2010–2024-yillar bo‘yicha sabzavot, meva va rezavorlar, uzum ishlab chiqarish hajmi dinamikasiga oddiy chiziqli trend modeli qo‘llanib, 2025–2030-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari hisoblangan.

7-jadval

2025-2030-yillar uchun prognoz (ming tonna)¹⁹

Yil	Sabzavotlar	Meva va rezavorlar	Uzum
2025	4371,83	1424,70	826,27
2026	4503,81	1459,73	837,61
2027	4635,80	1494,77	848,94
2028	4767,79	1529,80	860,27
2029	4899,77	1564,84	871,61
2030	5031,76	1599,87	882,94

2025–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari qishloq xo‘jaligining uchta asosiy tarmog‘i sabzavot yetishtirish, meva va rezavorlar ishlab chiqarish hamda uzumchilik bo‘yicha barqaror o‘shish tendensiyalarining davom etishini namoyon qiladi. Ekonometrik modellash natijalari barcha mahsulot turlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi yil sayin muntazam oshib borishini ko‘rsatadi.

Sabzavotlar ishlab chiqarish hajmi 2025-yildagi 4371,83 ming tonnadan 2030-yilda 5031,76 ming tonnagacha yetishi prognoz qilingan. Bu davr mobaynida o‘shish hajmi 659,93 ming tonnani, o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 131,99 ming tonnani tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich sabzavotchilikda ishlab chiqarish quvvatlari kengayib borayotganini, ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini va talabning barqaror o‘shishini bildiradi.

Sabzavotlar ishlab chiqarish hajmi o‘shishning asosiy omillari quyidagilardan iborat: ekin maydonlarining bosqichma-bosqich kengayishi; intensiv agrotexnologiyalarning joriy etilishi; suv resurslarini tejamkor boshqarish texnologiyalari (tomchilatib sug‘orish); talabning ichki bozorda barqaror o‘shib borishi. Umuman olganda, sabzavotchilikda prognoz davrida 14-15% atrofida umumiy o‘shish kuzatilishi kutilmoqda.

Meva va rezavorlar ishlab chiqarish hajmi 2025-yilda 1424,70 ming tonna bo‘lsa, 2030-yilga kelib 1599,87 ming tonnaga yetadi. O‘shish hajmi 175,17 ming tonnani, o‘rtacha yillik o‘shish esa 35,03 ming tonnani tashkil etadi. Boshqa tarmoqlarga nisbatan bu segmentdagi o‘shish sur‘ati yuqoriroq barqarorlik bilan

¹⁹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

ajralib turadi. Tahlil natijalari meva yetishtirishda quyidagi jarayonlar asosiy o'sish omillari ekanini ko'rsatadi:

intensiv bog'dorchilik tizimlarining keng joriy etilishi;

yuqori hosilli navlar ulushining oshishi;

eksport yo'nalishlariga mos sertifikatli va logistika tizimlarining yaxshilanishi;

mevalarni saqlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish.

Prognoz natijalari 2025–2030-yillarda meva va rezavorlar yetishtirish bo'yicha 12,3% atrofida o'sish kuzatilishini bildiradi.

Uzum ishlab chiqarish hajmi 2025-yildagi 826,27 ming tonnadan 2030-yilda 882,94 ming tonnagacha oshadi. O'sish 56,67 ming tonnani, o'rtacha yillik o'sish esa 11,33 ming tonnani tashkil etadi. Uzumchilikda o'sish sur'ati nisbatan past bo'lsa-da, model barqaror va ijobiy tendensiyani ko'rsatadi. Buning asosiy sabablar sifatida: so'nggi yillarda maydonlarning optimallashtirilishi; texnika va agrotexnik tadbirlarning modernizatsiyasi; ichki va tashqi bozorlarda uzum mahsulotiga talabning nisbatan sekin o'sishi; texnik navlar (vinochilik uchun) ulushining cheklangan o'sishi. Prognozga ko'ra, uzum ishlab chiqarish 2025–2030-yillar davomida 6,8-7% o'sadi.

Prognoz natijalari O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi kelgusi besh yillikda barqaror o'sish trayektoriyasiga ega ekanini tasdiqlaydi. Sabzavotchilikda ekstensiv va intensiv omillar birgalikda o'sishni ta'minlayotgan bo'lsa, meva va rezavorlar segmentida asosan intensiv texnologiyalar va plantatsiyalarning zamonaviylashtirilishi asosiy rol o'ynamoqda. Uzumchilikda o'sish nisbatan past bo'lsa-da, barqaror tendensiya saqlanib qolmoqda.

Meva-sabzavot yetishtirish sohasi qishloq xo'jaligining eng yuqori darajada mavsumiy xususiyatga ega sohalaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada ishlab chiqarish hajmlari, bozorga chiqarish muddatlari, saqlash imkoniyatlari hamda iste'mol talabi yil davomida bir maromda bo'lmay, muayyan oylarda keskin oshish yoki pasayish bilan tavsiflanadi. Bu holat narx dinamikasida ham yuqori o'zgaruvchanlikni keltirib chiqaradi. Shu bois meva-sabzavotchilik sohasida narxlar va hajmlarning bir vaqtda tebranishi iqtisodiy tahlil uchun jiddiy murakkablik tug'diradi. Agar ushbu holat hisobga olinmasa, fermer xo'jaliklarining real iqtisodiy holati, tushum dinamikasi va samaradorlik darajasi noto'g'ri baholanishi mumkin. Amalda ko'plab tahlillarda inflyatsiya ta'sirini neytrallashtirish uchun umumiy narx indeksleri yoki makroiqtisodiy deflyatorlar qo'llaniladi. Biroq ushbu ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyot darajasidagi umumiy narx tendensiyalarini aks ettirib, alohida mahsulotlar va hududlar kesimidagi mavsumiy farqlarni inobatga olmaydi. Natijada, agrar sektor, xususan, meva-sabzavotchilik sohasi uchun real dinamika to'liq aks ettirilmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda narx va inflyatsiya deflyatorlari o'rtasidagi nomutanosiblikning meva-sabzavotchilik sohasida real iqtisodiy jarayonlarni noto'g'ri baholashga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslandi hamda fermer xo'jaliklari samaradorligini aniqroq baholash imkonini beruvchi yangi deflyatsiya mexanizmini ishlab chiqish taklif etildi. Iqtisodiy tahlilda narx indeksleri va deflyatorlar nominal ko'rsatkichlarni real ko'rsatkichlarga aylantirish uchun

qo'llaniladi. Ularning asosiy vazifasi inflyatsiya ta'sirini neytrallashtirish va iqtisodiy o'sishning haqiqiy sur'atlarini aniqlashdan iborat.

Eng keng tarqalgan indekslar quyidagilardan iborat:

– Iste'mol narxlari indeksi (INI), ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (IChNI), yalpi ichki mahsulot deflyatori (YIM deflyatori)

Ushbu ko'rsatkichlar, asosan, agregatlashgan ma'lumotlarga tayanadi va iqtisodiyotning umumiy holatini baholash uchun mo'ljallangan. Biroq ular mahsulot turlari, hududiy farqlar va mavsumiy omillarni yetarlicha inobatga olmaydi. Meva-sabzavotchilik sohasida esa narxlar qisqa davrlarda keskin o'zgarishi mumkin. Shu bois yillik yoki choraklik deflyatorlar ushbu tarmoqda real dinamikani buzib ko'rsatadi. Bundan tashqari, an'anaviy deflyatorlar narx o'zgarishlarini ishlab chiqarish hajmlaridan mustaqil holda qarab chiqadi. Aslida esa meva-sabzavotchilik sohasida hajm va narx o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjud: hosil ko'p bo'lgan davrda narx pasayadi, hosil kamayganda esa narx ko'tariladi. Agar bu holat hisobga olinmasa, fermerning real tushumi noto'g'ri talqin qilinadi.

Meva-sabzavotchilikda narxlar quyidagi omillar ta'sirida keskin o'zgaradi: hosil yig'im-terim mavsumi; saqlash va qayta ishlash imkoniyatlari; tashqi bozorlarga chiqish sharoitlari; transport infratuzilmasi; havo-iqlim omillari. Bu omillar bir vaqtning o'zida ham narxga, ham hajmga ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy deflyatorlar esa ushbu ikki omil o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olmaydi.

Masalan, fermerning nominal tushumi quyidagicha ifodalanadi:

$$TR_t = P_t \times Q_t \quad (4)$$

bu yerda:

TR_t – t-davrdagi nominal tushum, P_t – mahsulot narxi, Q_t – ishlab chiqarish hajmi.

An'anaviy deflyator yordamida real tushum quyidagicha hisoblanadi:

$$RTR_t = \frac{TR_t}{D_t} \quad (5)$$

bu yerda:

D_t – umumiy inflyatsiya deflyatori (masalan, INI yoki YIM deflyatori).

Biroq agar P_t mavsumiy sabablarga ko'ra, keskin pasaygan bo'lsa, bu holat deflyator orqali neytrallashtirilmaydi. Natijada, real tushum sun'iy ravishda pasaygandek ko'rinadi, aslida esa bu tabiiy mavsumiy tebranish bo'lishi mumkin.

Shu tariqa, agrar sektorda an'anaviy deflyatorlar quyidagi kamchiliklarga ega: mahsulot kesimidagi farqlarni inobatga olmaydi; hududiy farqlarni aks ettirmaydi; mavsumiy tebranishlarni neytrallashtirmaydi; narx va hajm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olmaydi. Bu holat fermer xo'jaliklari samaradorligini noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida mazkur tadqiqotda mahsulotga, hududga va vaqt oralig'iga moslashtirilgan maxsus deflyator – "fermer-deflyator" indeksi ishlab chiqish taklif etildi.

Ushbu indeks quyidagi uchta o'lchamni bir vaqtda inobatga oladi:

1. Mahsulot kesimi (pomidor, olma, sabzi va h.k.);
2. Hududiy kesim (viloyat, tuman);
3. Vaqt kesimi (oylik).

Shu sababli fermer-deflyator quyidagicha belgilanadi: $FD_{i,r,t}$

bu yerda:

i – mahsulot turi, r – hudud (viloyat), t – vaqt (oy).

Fermer-deflyatorni hisoblashning umumiy formulasi quyidagicha taklif etildi:

$$FD_{i,r,t} = \frac{P_{i,r,t}}{P_{i,r,0}} \quad (6)$$

bu yerda: $P_{i,r,t}$ – t -davrdagi mahsulotning o‘rtacha bozor narxi, $P_{i,r,0}$ – bazis davrdagi narx. Bu indeks orqali nominal tushum va tannarx quyidagicha reallashtiriladi:

$$RTR_{i,r,t} = \frac{TR_{i,r,t}}{FD_{i,r,t}}; \quad (7)$$

$$RTC_{i,r,t} = \frac{TC_{i,r,t}}{FD_{i,r,t}} \quad (8) \text{ bu yerda:}$$

$RTR_{i,r,t}$ – real tushum, $RTC_{i,r,t}$ – real tannarx,

$TR_{i,r,t}$ – nominal tushum, $TC_{i,r,t}$ – nominal tannarx.

Bu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u:

- mavsumiy narx tebranishlarini neytrallashtiradi;
- mahsulotga xos xususiyatlarni inobatga oladi;
- hududiy bozor farqlarini hisobga oladi;
- fermer samaradorligini real baholash imkonini beradi.

Shu tariqa, “fermer-deflyator” indeksi fermer xo‘jaliklari uchun mikro-darajada moslashtirilgan deflyatsiya mexanizmini shakllantiradi.

Taklif etilayotgan “fermer-deflyator” indeksi mahsulot narxlaridagi mavsumiy va hududiy tebranishlarni neytrallashtirishga qaratilgan bo‘lib, uni hisoblash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Bazis davrni tanlash.

Birinchi bosqichda har bir mahsulot uchun bazis davr belgilanadi. Bazis sifatida quyidagilardan biri olinishi mumkin:

ko‘p yillik o‘rtacha narx, mavsumiy jihatdan barqaror davr, statistik jihatdan tipik yil.

Masalan, olma uchun bazis sifatida oxirgi 3 yildagi sentyabr oyining o‘rtacha narxi olinishi mumkin.

$$P_{i,r,0} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^n P_{i,r,k} \quad (9)$$

2. Joriy narxlarni aniqlash.

Ikkinchi bosqichda har oy uchun joriy bozor narxi aniqlanadi: $P_{i,r,0}$

Bu narxlar fermer bozorlari, ulgurji savdo nuqtalari va logistika markazlari ma‘lumotlari asosida yig‘iladi.

3. Fermer-deflyatorni hisoblash.

$$FD_{i,r,t} = \frac{P_{i,r,t}}{P_{i,r,0}} \quad (10)$$

Agar $FD_{i,r,t} > 1$ bo‘lsa, narx bazis davrga nisbatan oshgan;

agar $FD_{i,r,t} < 1$ bo‘lsa, narx pasaygan.

4. Real ko‘rsatkichlarni hisoblash.

Fermer xo‘jaliklarining real iqtisodiy holatini baholash uchun nominal ko‘rsatkichlar deflyatsiya qilinadi:

$$RTR_{i,r,t} = \frac{TR_{i,r,t}}{FD_{i,r,t}} \quad (11);$$

$$RTC_{i,r,t} = \frac{TC_{i,r,t}}{FD_{i,r,t}} \quad (12)$$

5. Samaradorlikni hisoblash.

$$Efficiency_{i,r,t} = \frac{RTR_{i,r,t}}{RTC_{i,r,t}} \quad (13)$$

Bu ko'rsatkich mavsumiy ta'sirlardan tozalangan holda fermerning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini aks ettiradi.

1. Pomidor yetishtirish xo'jaligi.

Pomidor yetishtirishda hosil iyul–avgust oylarida ko'payadi, narx esa pasayadi. Qish oylarida esa taklif kamayib, narx keskin oshadi.

Agar an'anaviy CPI asosida deflyatsiya qilinsa, yozda fermerning tushumi sun'iy ravishda kamaygandek ko'rinadi. Ammo fermer-deflyator yordamida:

yozda narx pasayishi neytrallashtiriladi, hosil ko'payishi real o'sish sifatida baholanadi, fermerning haqiqiy samaradorligi aniqlanadi.

2. Olma bog'iga ixtisoslashgan fermer.

Olmada asosiy farq saqlash muddati bilan bog'liq. Kuzda narx past, bahorda esa yuqori bo'ladi. Agar deflyatsiya qilinmasa, bahordagi yuqori tushum fermerning samaradorligi oshib ketgandek talqin qilinadi.

Fermer-deflyator orqali mavsumiy narx oshishi neytrallashtiriladi, saqlash xarajatlarining real ta'siri ko'rinadi, eksport qarorlari aniqroq qabul qilinadi.

3. Sabzi yetishtirish xo'jaligi.

Sabzida mavsumiylik bilan birga, narxlar keskin o'zgarib turadi. Ayrim oylarda narx 2–3 barobar farq qilishi mumkin.

Fermer-deflyator quyidagi imkoniyatlarni beradi:

har mavsumdagi samaradorlikni solishtirish, eng foydali davrlarni aniqlash, risklarni hisoblash.

